BUYUK AKTYOR VA REJISSOR - ABBOS BAKIROV

Mirsoliyeva Durdona
O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Instituti Farg'ona mintaqaviy filiali
Qo'g'irchoq teatr aktyorligi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Quyida keladigan maqolada O'zbek teatr va kino tarixining eng serqirra va eng ijodkor namoyondalaridan biri bo'lgan, Andijon faxri sanalmish buyuk shaxs, yani Abbos Bakirov haqida so'z yuritiladi. Uning hayoti va ijodi, ijod davomida qo'lga kiritgan unvonlari haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: teatr, badiiy, rejissor, saxna, aktyor, drama, komediya, xabardor, tabiblik, aktrisa, yoshlar, unvon, mehnat, orden.

Abbos Bakirov 16-may 1910-yilda Andijonda tug'ilgan. Otasi Said Bakir Ubaydullo o'qimishli odam bo'lib, tabiblik ilmidan xabardor bo'lgan yana muqovasozlik bilan shug'ullangan. Onasi Sadoyixon Sayid Vaqqos qizi ham o'z davrining o'qimishli ayollaridan biri edi. Aktyor oilada to'rt farzandning kenjasi bo'lgan.

Faoliyatini 1931-yil Yo'ldosh Oxunboboyev nomidagi Andijon viloyat musiqali drama va komediya teatrida aktyor sifatida boshlagan. Bu davrda teatr direktori Muhiddin Qoriyoqubov, badiiy rahbar To'xtasin Jalilov edi. Abbos Bakirov deyarli 50 yil davomida Andijon teatrida ishladi. Avvalida saxna ishchisi bo'lgan keyinchalik aktyor, rejissor, bosh rejissor va badiiy rahbar lavozimiga ko'tarilgan. Rejissorlik faoliyatida aktyorga asosan Ishoqxon qori Karimov ustozlik qilgan. Teatrda aktyor sifatida ishlaganda sahnada Mahkam polvon („Bog'bon qiz"), Qosim dehqon („Ontarish"), Muslimboy („Halima") va boshqa uning ilk obrazlaridir. Rustam („Rustam"), Ferdinand („Makr va muhabbat"), G'ofir („Boy ila xizmatchi"), Romeo („Romeo va Julyetta") kabi obrazlari bilan tomoshabinlar qalbidan joy olgan. Bakirov tabiatan qat'iyatli, intiluvchan kishi bo'lgani holda obrazlarga ham shu hislatlarni singdirishga harakat qilgan.

Teatrda ko'plab rollarni ijro etgandan so'ng katta tajriba bilan kino olamiga kirib kelgan. 1939-yil birinchi o'zbek ovozli filmi — „Azamat"dagi Azamat roli uning kinodagi faoliyatini boshlab berdi. Shundan so'ng unga yangidan-yangi rollar ishonib topshirila boshlandi. 1943-yili „Nasriddin Buxoroda", 1955-yili „Amirlikning parchalanishi" filmlariga taklif etilgan. Rejissorlar Latif Fayziyev va Vladimir Basov tomonidan suratga olingan „Amirlikning parchalanishi" filmidagi Amir Olimxon obrazi aktyorga katta shuhrat keltirgan. Amir Olimxon obrazini yaratgandan keyin „Abu Ali ibn Sino" filmida Sulton Mahmud, „Hamza" (1961-yili) filmida Shayx Ismoil, „Osiyo ustidagi bo'ron" filmida Qoplonbek, „O'tgan kunlar" filmida Yusufbek hoji rollarini ijro etgan.

Eng yaxshi rollari: Amir Olimxon (Amirlik parchalanishi), Sulton Mahmud („Abu Ali ibn Sino"), Abbos („Ulug'bek yulduzi"), A'zamxon („Ikki dil dostoni"), Yusufbek hoji („O'tgan kunlar") va boshqa Insonning shaxsiy kechinmasi bilan e'tiqodi, dunyoqarashini mushtarak tarzda ko'rsatishda, ayniqsa, Yusufbek hoji roli Bakirovni realistik san'atning moxir ustasi ekanini ko'rsatdi. B. ijobiy va salbiy rollarni bir xil mahorat bilan o'ynagan. U sahnada tana, qo'l harakatlaridan, ayniqsa, yuz, ko'z va ohangdan ustalik bilan foydalangan. Rejissyor sifatida1940-yildan boshlab faoliyat yurita boshlagan va 40 dan ortiq spektakllarni sahnalashtirgan. Xalq tarixi, urf-odatlarini yaxshi bilganligi tufayli Bakirov milliy asarlarni alohida muvaffaqiyat bilan omma oldiga olib chiqgan: „Alisher Navoiy", „Shohi so'zana",

„Og‘riq tishlar“, „Muqimiy“, „Xolisxon“, „Nurxon“, „Nodira“, „Layli va Majnun“ va boshqalar shular jumlasidandir.

Abbos Bakirov 1940-yilda aktrisa Qamara Burnasheva bilan turmush qurgan. Ularning qizi Oybarchin Bakirova 1957-yil 27-iyunda tug‘ilgan. U ham aktrisa va dublyaj aktyori hisoblanadi, unga 2000-yilda O‘zbekiston xalq artisti unvoni berilgan.

Aktyor 1974-yil 29-yanvarda bu olamni tark etgan va Andijonda dafn qilingan.

Andijon shahar yoshlar teatriga, shuningdek, shahardagi kinoteatrlardan biriga Abbos Bakirov nomi berilgan. Quyida uning teatrda rollari va albatta kinodagi gavdalantirgan rollari bilan tanishishingiz mumkin bo'ladi.

Teatrdagi rollari:

• „Bog‘bon qiz“ („Bog‘bon qizi“) T. Sodiqov — Mahkam polvon

• „Mag‘lubiyat“ K. Yashin — Arslon, Ahmad ponsod

• „Boy ila xizmatchi“ Hamza Hakimzoda Niyoziy — G‘afur

• U. Ismoilovning „Rustam“ — Rustam

• „Inspektor“ N. Gogol — Xlestakov, Gorodnichiy

• „Fitna va sevgi“ F. Shiller — Ferdinand

• „Romeo va Juliet“ V. Shekspir — Romeo

• „To‘ntarish“ — Qosim dehqon

• „Hamida“ — Muslimboy

Filmdagi rollar:

• 1939-yil — Azamat — Azamat

• 1955-yil — Amirlik parchalanishi — Buxoro amiri

• 1956-yil — Abu Ali Ibn Sino — Sulton Mahmud G‘aznaviy

• 1956-yil — Baxt nomi bilan — Rahmonov

• 1958-yil — Lenin yo‘llanmasi — Kari

• 1958-yil — O‘g‘illar davom etadi — Qosim

• 1958-yil — Maftuningman — Afzalov

• 1961-yil — Kichik qush — Nasirov

• 1963 yil — Farg‘onalik beshlik — O‘rozov

• 1964-yil — Ulug‘bek yulduzi — Abbos

• 1964 yil — Burya nad Aziey — Qoflonbek

• 1964 yil — Qiyin yo‘l — Tursunov

• 1966-yil — Ikki yurak she’ri — A’zamxon

• 1968-yil — Komandirning qaytishi — Arslonov

• 1968 yil — Inqilob chavandozlari — Xudoyorov

• 1969-yil — O‘tgan kunlar — Yusufbek Hoji

• 1970-yil — Qora konsulning o‘limi — Xudoyar Pansod

• 1973-yil — Xalqdan biri — Rustambek To‘qsabo

• 1974-yil — Qaldirg‘ochlar bahorda keladi — Fattoh bobo

• 1975-yil — Mejgoryeda edi — Mulla Hasan

Unvonlar va mukofotlar:

• O‘zbekiston SSR xalq artisti (1939)

SSSR xalq artisti (1970)

• Hamza nomidagi O‘zbekiston SSR Davlat mukofoti (1970)

• Mehnat Qizil Bayroq ordeni (1959)

• Buyuk xizmatlari uchun ordeni (O‘zbekiston, 2001) — vafotidan keyin berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Sahna ma'naviyati (SH. Rizayev)

2. Sahna nutqi (U. Boltaboyeva)

3. Qo'g'irchoq teatr tarixi (M. Qodirov, S. Qodirova)

4. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari (D.D.Abdullayev, L.D.Usmanova)

5. Курбаниязова, Р. К. (2017). Роль политических представлений в формировании политического менталитета. In Перспективы развития науки и образования (pp. 64-66).

6. Курбаниязова, Р. К. (2017). ПОЛИТИЧЕСКИЕ УСТАНОВКИ В СТРУКТУРЕ ПОЛИТИЧЕСКОГО МЕНТАЛИТЕТА. Интернаука, (10-2), 60-63.

7. Шукурлаев, К. Ш., & Якубова, У. Б. (2022). ВЛИЯНИЕ ВЬЮНКА ПОЛЕВОГО–CONVOLVULUS ARVENSIS L НА ТЕЧЕНИЕ АДЪЮВАНТНОГО АРТРИТА У БЕЛЫХ КРЫС ПРИ НАРУЖНОМ ПРИМЕНЕНИИ. Academic research in educational sciences, 3(9), 323-330.